

AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: XORIJ TAJRIBASI

Ametova Fotimajon

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0009-5484-4931

ffotima.ametova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholining ijtimoiy himoyalashda moliyaviy ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari xorijiy davlatlar tajribasi asosida o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi, moliyalashtirish mexanizmlari hamda institutsional yondashuvlari tadqiq etilgan. Xususan, Yevropa davlatlari, AQSh va Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta, manzilli ijtimoiy yordam, majburiy tibbiy sug'urta va kambag'allikni qisqartirish dasturlarining samaradorligi tahlil qilingan. Xorij tajribasi asosida aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga qaratilgan ilg'or yondashuvlar aniqlanib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy dastur, ijtimoiy sug'urta, manzilli ijtimoiy yordam, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy barqarorlik, farovonlik darajasi.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Аметова Фотимажон

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье на основе зарубежного опыта изучены приоритетные направления финансового обеспечения социальной защиты населения. В ходе исследования проанализированы процессы формирования системы социальной защиты, механизмы её финансирования и институциональные подходы в развитых и развивающихся странах. В частности, рассмотрена эффективность программ социального страхования, адресной социальной помощи, обязательного медицинского страхования и сокращения бедности в странах Европы, США и Азии. На основе зарубежного опыта выявлены передовые подходы, направленные на усиление социальной защиты уязвимых слоёв населения, а также освещены возможности их применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: социальная защита, социальная программа, социальное страхование, адресная социальная помощь, сокращение бедности, социальная политика, социальная стабильность, уровень благосостояния.

PRIORITY DIRECTIONS OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Ametova Fotimajon

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article examines the priority areas of financial provision for social protection of the population based on international experience. The study analyzes the formation of social protection systems, financing mechanisms, and institutional approaches in developed and developing countries. In particular, the effectiveness of social insurance schemes, targeted social assistance, mandatory health insurance, and poverty reduction programs in European countries, the United States, and Asian countries is assessed. Based on international experience, advanced approaches aimed at strengthening social protection for vulnerable groups of the population are identified, and the possibilities of their implementation in the context of Uzbekistan are highlighted.*

Keywords: *social protection, social program, social insurance, targeted social assistance, poverty reduction, social policy, social stability, level of well-being.*

Kirish.

Hozirgi kunda butun dunyoda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy islohotlar negizida inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu harakatlar o'z navbatida aholini ijtimoiy himoyalash tizimi taraqqiyoti hamda uni molyaviy ta'minlash masalalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash ma'lum bir vaziyatdagi fuqarolarni mamlakat rivojlanishining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarning yuzaga kelishi natijasida boshqa jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy tengligini ta'minlash maqsadida davlat budjetidan va ijtimoiy jamg'armalar hisobidan moddiy ta'minlanishga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy siyosatining shakli hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshlandi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda ushbu tizim yangidan yaratildi va rivoj topdi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod, madaniy rivojlanish va an'analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib kirib keldi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholi yoshining tarkibiy tuzilishi ham respublikamizdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, bu sohadagi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ijtimoiy masalalarning, jumladan, ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, aholi bandligi, ayollar va bolalar masalasi, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarini rivojlantirishdagi islohotlarimizning ustuvor yo'nalishlari ekanligini belgilab bermoqda. Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida (2025) shunday ta'kidlaganlar: "So'nggi to'qqiz yilda biz sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarini, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda".

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT, 2024) axborotiga ko'ra, "aholini ijtimoiy himoyalashni kengaytirish kambag'allikni bartaraf etish, tengsizliklarni kamaytirish, bandlik va tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish, yashil iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlash hamda gender tengligini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega". Tashkilot buyurtmasi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiy himoyaga kiritilgan investitsiyalar yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega: ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan har bir dollar o'rtacha hisobda ikki yarim yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmini 1,84 barobarga oshiradi. Bu esa ijtimoiy himoya oddiy ijtimoiy xarajat emas, balki soliq tushumlarini ko'paytiradigan va inklyuziv

iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy investitsiya ekanini anglatadi" (Cardoso va boshq., 2025).

Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida bozor munosabatlariga yuz tutar ekan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi, ijtimoiy moliyaviy munosabatlarda ham chuqur islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Belgilangan strategik vazifalar davlatning taktik chora-tadbirlari asosida bajarila boshlandi. Aholini ijtimoiy himoyalashda moliyaviy munosabatlarning mazmuni shundaki, ushbu munosabatlar jamiyatning ijtimoiy strukturalarida moliyaviy resurslar va ularning taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan aloqalar va jarayonlarni ifodalaydi. Bu munosabatlar turli ijtimoiy guruhlar, shaxslar, davlat organlari va iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida yuzaga keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorij va mahalliy ilmiy manbalarda aholini ijtimoiy himoyalashning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi va ushbu ijtimoiy munosabatlardagi ishtirokchi tomonlarning faoliyati va ahamiyatini yoritib beruvchi bir qator olimlarning ta'riflari va fikr-mulohazalari mavjuddir. Xususan, chet-ellik iqtisodchi olimlardan Holzmann va Jorgensenlarning (2020) ta'kidlashicha, "ijtimoiy himoyani ijtimoiy xavflarni boshqarish tizimi sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, ijtimoiy himoya aholining iqtisodiy zarbalarga bardoshlilikini oshiradi, kambag'allikning oldini oladi va inson kapitalini saqlab qolishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda ijtimoiy himoya nafaqat yordam, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi". Rus olimlaridan Лаврова (2016) o'zining tadqiqot ishlarida aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy dastak vosita ijtimoiy sug'urta ekanligiga urg'u berib shunday ta'kidlaydi: "iqtisodiyotdagi murakkab vaziyat, iste'mol narxlarining o'sishi va inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda, sug'urta tariflarini hisoblash va belgilashda amaldagi yondashuvlar sug'urtalovchi va sug'urta qiluvchining majburiyatlari ekvivalentligi tamoyiliga asoslanishi zarur. Ya'ni, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urta bo'yicha barcha daromadlar hajmi, jumladan sug'urta badallaridan tushumlar, mazkur baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari oqibatida jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq barcha to'lovlar hajmini to'liq qoplashi lozim".

O'zbek iqtisodchi olimlaridan olimlarimizdan Tursunov (2022) o'zining ijtimoiy himoyalashga asoslangan ilmiy ishlarida pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratgan: "pensiya tizimini aniq holatini baholash uchun boshlang'ich pensiya risklarini aktuar baholash zarur hisoblanadi. Bu esa pensiya tizimini tartibga solish va boshqarishga imkon beradi".

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolamizda aholini ijtimoiy himoyalash tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ushbu tizimda amalda bo'lgan prinsip va tamoyillar xorijiy mamlakatlar misolida zamonaviy ilmiy yondashuvlar va tahliliy usullar asosida metodologik asos ishlab chiqildi. Tadqiqotda aholini ijtimoiy himoyalash tizimining zamonaviy moliyaviy imkoniyatlari va rivojlanish muammolarini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud xalqaro va mahalliy tajribalar asosida ijtimoiy himoya munosabatlari va dasturlari tizimi o'rganildi.

Deskriptiv (ta'rifiy) yondashuv – aholini ijtimoiy himoyalash tizimini joriy qilishda xorijda va O'zbekistonda mavjud huquqiy-institutsional muhit tavsiflandi.

Statistik tahlil – xorijiy mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar tahliliy baholandi va o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida aholini ijtimoiy himoyalash dasturlari o'zaro solishtirma tahlil asosida o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


So'nggi o'n yillikda xalqaro amaliyotda, shuningdek, mamlakatimizda ham ijtimoiy himoyalashning moliyaviy mexanizmi rivojlanishining umumiy tendensiyasi moliyaviy resurslarning barqarorlik va muhimlik ahamiyatini oshirmoqda. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, ijtimoiy sohani moliyalashtirish va uni tartibga solish tamoyillarini, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lami va shakllari bo'yicha ma'lum o'ringa ega, hajmi jihatidan farqlanuvchi ijtimoiy to'lovlarning turli shakllari va turlarini yaratish nazarda tutilmoqda. Ijtimoiy himoyalashning moliyaviy mexanizmini tartibga solish ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Bu ijtimoiy sohalarning xilma-xilligi bilan izohlanadi, ya'ni ularni hal qilish turli mamlakatlarda ijtimoiy xavfsizlik atamasining rasmiy ta'rifini va ijtimoiy sohaning xilma-xilligini talab qilishi mumkin.

Xorijiy olimlarning ta'kidlashicha, Rossiya Federatsiyasi aholini ijtimoiy himoyalash strategiyasi doirasida "mutlaq ko'rsatkichlarda umumiy xarajatlar hajmi oshib boradi, yalpi ichki mahsulotning prognoz qilinayotgan hajmiga nisbatan esa dastlab ortadi, keyinchalik kamayadi. Umumiy xarajatlar hajmi majburiy quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- pensiya sug'urtasi;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik va onalik bilan bog'liq ijtimoiy sug'urta;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan ijtimoiy sug'urta"

(Averinin va boshq., 2025).

Mamlakatdagi aholining ijtimoiy faolligi ijtimoiy sohani moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining ijtimoiy faol halati – har bir mehnatga layoqatli fuqaro o'zi haqida o'zi qayg'urishi, munosib turmush tarzi kechirishi uchun mustaqil mehnat qilishi kerakligini bildiradi. Har bir fuqaro, avvalo, daromad keltiradigan ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishi, tirikchilik qilishi uchun zarur bo'lgan mutaxasssliklarni egallashi, kasbiy faolligini oshirish yo'llarini topishga harakat qilishi, o'z ustida tinmay ishlashi hamda jamiyat bergan huquqiy ne'matlardan foydalangan holda o'zining aktiv faoliyatini takomillashtirib borishi katta ahamiyatga egadir. Dunyo mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoyalash siyosati iqtisodiy rivojlanish darajasi, budjet imkoniyatlari va ijtimoiy model (skandinav, kontinental, anglo-sakson, Sharq modeli)ga qarab turlicha yo'nalishda shakllangan. Shunga qaramay, xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimi quyidagi 4 ta asosiy mexanizm asosida tashkil etiladi(1-rasm):



1-rasm. Xalqaro amaliyotda aholini ijtimoiy himoyalashda amalga oshirilayotgan harakatlar dasturi

Manba: o'rganilgan ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Har bir davlatda jamiyatga berilayotgan imkoniyatlardan fuqarolar o'zlarini ijtimoiy ahvollarini yaxshilash uchun foydalanishlari lozim. Shu bilan birga, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishda mutaxassislarning ishtirok etishi, zamonaviy texnikani o'rganish yuzasidan malakasini oshirish uchun berilayotgan imkoniyatlar va sharoitlardan oqilona va samarali foydalanish orqali fuqarolar yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritib, yuqori daromadga ega bo'lishi hamda o'zlari uchun farovon hayotni ta'minlashlari lozim.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash dasturlari

Ijtimoiy himoya shakli	Mamlakat / Tashkilot	Qo'llaniladigan dastur yoki model	Qisqa tavsif
1. Davlat ijtimoiy yordam dasturlari	AQSh	SNAP (Food Stamps)	Oziq-ovqat uchun davlat yordami
	AQSh	TANF	Kam daromadli oilalarga vaqtinchalik nafaqa
	AQSh	Medicaid	Kam daromadli aholiga bepul tibbiy yordam
	Yevropa Ittifoqi	Minimum Income Schemes	Minimal daromad kafolati dasturlari
	Janubiy Koreya	Basic Livelihood Security Program	Kambag'al oilalarga davlat yordami
2. Ijtimoiy sug'urtalash dasturlari	Germaniya	Federal Social Insurance	Pensiya, tibbiy va ishsizlik sug'urtasi majburiyligi
	Fransiya	Sécurité Sociale	Universal ijtimoiy sug'urta tizimi
	Yaponiya	National Pension System	Milliy pensiya tizimi
	Yaponiya	National Health Insurance	Milliy tibbiy sug'urtasi
3. Ijtimoiy xizmatlar dasturlari	Shvetsiya	Home-care Services	Keksalar va nogironlarga uyga borib xizmat ko'rsatish
	Kanada	Social Services Canada	Oilalar, bolalar, nogironlar uchun xizmatlar
	Buyuk Britaniya	Social Care Services	Keksalar, nogironlar va oilalarga ijtimoiy parvarish
4. Davlat tomonidan kafolatlangan minimal standartlar	Finlyandiya	Basic Income Support (KELA)	Minimal daromad kafolati
	Ispaniya	Minimum Vital Income	Kambag'al oilalar uchun minimal daromad
	ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti)	Recommendation 202 – Social Protection Floors	Barcha davlatlar uchun minimal ijtimoiy kafolatlar
	BMT	UN Social Protection	Global ijtimoiy himoya siyosatlar

Manba: internet ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.


Xorij mamlakatlarida davlat o'zining ijtimoiy siyosatini olib borar ekan, aholini ijtimoiy himoya qilishning moliyaviy ta'minoti muhim hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalashni moliyalashtirish – bu taqsimlash va qayta taqsimlash xarakteriga ega bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, uning jarayonida soliqlar va maxsus badallar hisobidan

markazlashgan va markazlashmagan moliyaviy resurslar jamlanadi. Bu resurslar fond va nofond shaklida ijtimoiy ta'minot, jamiyat a'zolarini ijtimoiy sug'urta qilish hamda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonlarida shakllantiriladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning moliyaviy ta'minoti zarur pul mablag'lari hajmi va ularning manbalarini baholash va rejalashtirishni, moliyaviy resurslarni jamlashni, xarajatlarni moliyalashtirishni tashkil etishni, resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishni, ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirishni hamda ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam bilan bog'liq pul mablag'lari harakati bosqichlarining barchasida operatsiyalarning qonuniyligini nazorat qilishni o'z ichiga oladi, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, qonunchilik bilan mustahkamlangan ijtimoiy siyosat albatta o'zining samarasini beradi.

Ijtimoiy himoya siyosiy yo'nalish sifatida qashshoqlik va zaiflikni ko'p o'lchovli hamda davomli jarayon sifatida tushunishni tegishli siyosiy chora-tadbirlar bilan bog'laydi. Ushbu siyosiy xaritaning turli talqinlari mavjud – ayrimlari xavf omillariga, boshqalari huquqlarga yoki ehtiyojlarga urg'u beradi, biroq ularning barchasi o'zaro umumiy jihatlarga ega. Ushbu umumiylikning muhim jihati shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya kengroq rivojlanishdagi rolni bajaradi va u, eng avvalo, (ekstremal) qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan.

Bir qator yetakchi davlatlarda ijtimoiy-moliyaviy munosabatlarning modernizatsiyasi ijtimoiy ne'matlar va real ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik o'rnatish, yangi moliyaviy manbalarni aniqlash, shaxsiy tanlov imkoniyatlarini kengaytirish (shu bilan birga shaxsiy mas'uliyatni ham oshirish) orqali insonning o'z farovonligiga erishishiga sharoit yaratish bilan bog'lanadi.



2-rasm. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi uchun moliyaviy resurslar manbalarining tarkibi (Goncharova, 2006)

Xorijiy mamlakatlarda, shuningdek, mamlakatimizda ham aholini manzilli va samarali ijtimoiy himoyalash va ta'minlashda albatta davlat va uning tuzilmalari bir qator masalalarning hal etilishini ta'minlaydi. Birinchidan, jamiyat mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga ish joyiga yoki zarur resurslarga ega bo'lish va mehnatga yarasha haq to'lash kafolati ham kiritiladi. Ikkinchidan, jamiyat davlat organlari tizimi va boshqa ijtimoiy tuzilmalar orqali ish kuni, ish haftasi, ish yili tartibini, yuqori mehnat samaradorligi bilan uzoq muddatli mehnat qobiliyatini saqlash uchun qulay shart-sharoitlarni qonunchilik yo'li bilan hamda boshqacha ijtimoiy himoyalashni kafolatlaydi.

E.N. Shutyak ijtimoiy himoya nuqtayi nazaridan to'rtta davlat guruhini ajratadi, ularda ijtimoiy moliyaviy ta'minotni isloh qilishda o'xshash tendensiyalar kuzatiladi: "Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati mamlakatlari, o'tish davridagi iqtisodiyotga ega Yevropa davlatlari, AQSh va rivojlanayotgan davlatlar. Quyidagi muhim bo'lgan to'rtta xulosaga kelindi:

1. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi doirasida majburiy shakldagi ijtimoiy sug'urtaga ustuvorlik beriladi, bu esa XMT (ILO) va BMTning me'yoriy hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan. Biroq ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam institutlarining yetarlicha rivojlanmaganligi ijtimoiy kafolatlarga ega bo'lgan shaxslar sonining qisqarishiga olib kelmoqda: band bo'lmaganlar, o'zini o'zi band qilganlar, kichik korxonalarda ishlovchilar. O'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda mazkur institutlarning rivojlanish xususiyatlari daromad yo'qotish xavfini qoplash darajasining pastligiga (yashash minimumi darajasi yoki undan ham past) sabab bo'lmoqda.

2. Mamlakatlarni ijtimoiy moliyaviy ta'minotning institutsional shakllariga ko'ra aniq ajratishning iloji yo'q, ya'ni quyidagicha:

- minimal ijtimoiy kafolatlar barcha aholiga belgilangan davlatlar;
- ijtimoiy kafolatlar faqat ishlayotganlar uchun ijtimoiy sug'urta hisobidan ta'minlanadigan davlatlar.

Ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy moliyaviy ta'minot davlat yig'adigan soliqlar hisobidan amalga oshiriladi, boshqalarida esa moliyaviy manba sifatida sug'urta badallari xizmat qiladi. Davlatlarning ijtimoiy moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ulushi ularning ijtimoiy himoyasi muvaffaqiyatli bo'lishini kafolatlamaydi. Masalan, Fransiya, Germaniya va Niderlandiyada soliqlar orqali moliyalashtirish darajasi Ispaniya, Italiya yoki Buyuk Britaniyaga nisbatan ancha past. Biroq ular yuqori darajadagi ijtimoiy himoyaga ega mamlakatlar sifatida tan olinadi. Shu bilan birga, Daniya, aholining 79% ijtimoiy himoyasi davlat soliqlari hisobidan moliyalashtirilishiga qaramay, yuqori ijtimoiy himoya darajasiga ega mamlakat sifatida e'tirof etiladi. Aholi jon boshiga YaIM darajasi bilan ijtimoiy himoya darajasi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud emas. Amalda ijtimoiy himoyaning mavjudlik darajasi daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlariga nisbatan siyosiy ustuvorliklarning bir variantini aks ettiradi.

3. Ob'ektiv iqtisodiy va demografik omillar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi xarajatlarining barcha subyektlar – davlat, korporatsiyalar va ishlovchi fuqarolar uchun sezilarli ravishda oshishiga olib keldi. Eng ko'p oshgan xarajatlar pensiya tizimlari va tibbiy xizmatlarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, XXI asrda ijtimoiy himoya vazifasi faqat tirikchilikni ta'minlashdan iborat emas, balki ijtimoiy izolyatsiyani bartaraf etish va insoniy qadr-qimmatni saqlashni ham o'z ichiga oladi.

4. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy imkoniyatlar va ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordamni oqilona uyg'unlashtirish orqali ko'riladi. Bunda istiqbolda ijtimoiy ta'minotga nisbatan ijtimoiy yordamning ko'proq rivojlanishi kuzatilmoqda. Ijtimoiy sug'urta instituti tizimning asosiy instituti bo'lib qolmoqda. Unda birdamlik, subsidiarlik va o'zini o'zi boshqarish kabi asosiy tamoyillar bilan bir qatorda sug'urtaning o'ziga xos tamoyillari – badallar va to'lovlarning muvofiqligi, zaxiralarni kapitallashtirish va boshqalar rivojlanmoqda" (Shutyak, 2004).

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimida korporatsiyalarning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, jumladan majburiy shaklda ishtirok etish tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda, bu esa ijtimoiy himoya tizimiga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishga yordam beradi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi moliyasini mustahkamlashning eng muhim yo'nalishi mehnat bozorini faollashtirish va ishlovchilar sonini ko'paytirish orqali xarajatlarni qisqartirishdir, bu o'z navbatida soliq bazasini kengaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimiga qancha miqdorda badal yoki soliq belgilanishi kerakligi bo'yicha universal qoida mavjud emas.

Jahon amaliyotida mavjud milliy ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishning quyidagi shakllari amal qiladi: qonunda belgilangan va sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy sug'urta; davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy yordam (to'lovlar miqdori shaxsiy ehtiyojga bog'liq); aholining to'laydigan maxsus soliq hisobidan va umumiy soliq tushumlaridan moliyalashtiriladigan universal to'lovlar tizimi

(to'lovlarni olish shartlari: aholi yoshi, oilaviy holati, mamlakatda qolish muddati va boshqa omillar bilan bog'liq); tadbirkor tomonidan o'z xodimlari uchun moliyalashtiriladigan ishlab chiqarish ta'minoti; ijtimoiy sohaning boshqa turlarini to'ldiradigan ixtiyoriy sug'urta. Har qanday mamlakatda amal qiladigan ijtimoiy himoyaning milliy tizimi amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat modeli bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi.

2-jadval

Aholini ijtimoiy himoyalashning milliy modellari

Model	Hududlar	Asosiy xususiyatlari	Moliyaviy manbalar
Liberal (Anglo-Sakson)	AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya	Davlatning aralashuvi minimal; ijtimoiy yordam asosan ehtiyojmandlarga manzilli shaklda beriladi; xususiy sug'urta va bozor mexanizmlari yetakchi.	Asosan xususiy sektor va soliqlar
Korporativ-konservativ (Kontinental)	Germaniya, Fransiya, Italiya, Avstriya	Ijtimoiy himoya kasb va mehnatga bog'liq; oila va cherkovning roli yuqori; davlat kafolatchi, lekin asosiy yuk sug'urta fondlariga yuklangan.	Ijtimoiy sug'urta badallari va davlat budjeti
Sotsial-demokratik (Skandinaviya)	Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya	Universallik tamoyiliga asoslangan; barcha fuqarolarga teng imkoniyat; keng qamrovli xizmatlar (ta'lim, tibbiyot, nafaqalar); tenglikka urg'u.	Davlat budjeti va yuqori soliqlar

Manba: o'rganilgan adabiyotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Ijtimoiy himoya milliy modellarining bir-biridan farq qiluvchi asosiy omillari ijtimoiy himoya institutlari tuzilmasi va ko'rinishlari (majburiy ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam va davlat ijtimoiy ta'minoti), tibbiy yordam va ta'lim, ularning faoliyat yuritishini ta'minlovchi resurslar hajmi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida davlatning tutgan mavqeini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- davlat jamiyatni boshqarish bilan shug'ullanuvchi markaziy siyosiy institut hisoblanadi va u tomonidan chiqarilgan qarorlar va mehnatga layoqatli aholini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kekak;

- davlat ishlab chiqarish, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, bepul ijtimoiy xizmatlar, imtiyozlar orqali daromadni qayta taqsimlash, ayrim hududlar yoki aholini ijtimoiy muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda ustuvorlikka ega. Ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalarining tijoratlashuvi imkoniyatlarining chegaralanishi esa ushbu sohalarini davlat tomonidan maqsadli moliyalashtirishni va har tomonlama qo'llab-quvvatlashni talab qiladi;

- davlat ishlab chiqarishni rag'batlantirishning iqtisodiy dastaklari bilan birgalikda ma'lum darajada ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga aralashishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy soxani qo'llab – quvvatlash jixatidan farqli ravishda o'ziga xos modellar asosida olib boriladi. Xorijiy mamlakatlardagi modellarda budjetdan tashqari pensiya fondlari, ijtimoiy himoya dasturlari, jamg'arib boriladigan xususiy pensiya tizimi, davlat ijtimoiy sug'urta fondlari, majburiy tibbiy sug'urta fondlari, aholi bandligi fondlari ko'rinishida ifodalanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatdiki, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi Shvetsiya "umumiy farovonlik davlati"ning asosiy unsuri hisoblanadi. Davlat ijtimoiy nochor aholi toifalariga ijtimoiy ne'matlarni qayta taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Jamiyatda

yuzaga kelgan ehtiyojlar darajasiga mos yuqori nafaqalar miqdori turlarining xilma-xilligi (pensiylar, nafaqalar, uylarda qariyalarning yashashini ta'minlash va boshqalar)ni saqlaydi. Shvetsiyada davlat nafaqat ishsizlarni ishga joylashtirish bilan shug'ullanadi, balki ularni moddiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlaydi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovi ish joyini yo'qotgandan keyin besh kun ichida olib boriladi. Moddiy yordam ko'rsatishning maksimal muddati 55 yoshdan kichik shaxslar uchun 300 kunni va katta yoshdagi shaxslar uchun 450 kunni tashkil etadi.

Germaniyada XIX asrning 80-yillarida "ijtimoiy davlat" atamasi bilan bir qatorda boshqa tushuncha – "farovonlik davlati" paydo bo'ldi. "Farovonlik davlati" siyosati o'zining barcha fuqarolari turmushini yaxshilashga yo'naltirilganligini bildiradi. Bunday siyosatning asosiy mazmunini fuqarolarga ijtimoiy huquqlarni kafolatlash, davlatning esa o'z zimmasiga ijtimoiy mas'uliyatni olishi deb hisoblangan.

Bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlatning barcha fuqarolarning farovonligini ma'lum darajada ta'minlashga, aholining kam ta'minlangan guruhlarini qo'llab-quvvatlashga va jamiyatda ijtimoiy adolatlikni e'tirof etishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish chora-tadbirlari hisoblanadi. Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Davlat amalga oshirayotgan, aholining barcha qatlamlari manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy ta'minot orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya barqaror moliyaviy manbalar asosida shakllangan. Yevropa Ittifoqi, Kanada, Yaponiya kabi mamlakatlar ijtimoiy sug'urta, majburiy badallar, soliqlar hamda davlat-xususiy sheriklik asosida keng qamrovli tizimlarni qo'llagan. Ushbu moliyalashtirish mexanizmi tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Bu borada mablag'larning sarflanishi ustidan davlat moliyaviy nazorati muhim ahamiyatga egadir. Davlat nazorat organlari faoliyati aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga real hissa qo'shishi lozim. Bu esa davlat moliyaviy mablag'larining samarasiz yoki maqsadsiz sarflanishi holatlarini aniqlash va oldini olish bilan birga, davlatning moliyaviy hamda moddiy resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Ko'pchilik xorijiy mamlakatlar olib borayotgan ijtimoiy siyosatiga ko'ra, zamonaviy ijtimoiy standartlar minimal darajada emas, balki oddiy o'rtacha daromadga ega fuqaroning ijtimoiy ne'matlar iste'molini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, mamlakat aholisi tarkibida asosiy ulushni tashkil etuvchi o'rta sinfning to'lovga qodir iste'mol salohiyatini oshirish istiqbollari ham inobatga olinishi kerak. Har bir fuqaro yashash hududidan qat'i nazar, davlat budjeti hisobidan teng miqdordagi ijtimoiy ne'matlarni olish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Cardoso, D. et al. (2025) 'The multiplier effects of government expenditures on social protection', *Development and Change*, 56(1), p. 189.

Food and Nutrition Service, USDA (n.d.) Supplemental Nutrition Assistance Program (SNAP). Available at: <https://www.fns.usda.gov/snap>

Holzmann, R. and Jorgensen, S. (2000) *Social risk management: A new conceptual framework for social protection*. Washington, DC: World Bank.

ILO (2024) *World Social Protection Report 2024–26: Universal social protection for climate action and a just transition*. Geneva: International Labour Organization.

International Labour Organization (2024) *World Social Protection Report 2024–26*. Available at: <https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/world-social-protection-report-2024-26-universal-social-protection-climate>

International Labour Organization (n.d.) International labour standards. Available at: <https://www.ilo.org/global/standards>

Tursunov, J.P. (2022) 'Pensiya risklarini aktuar baholashning nazariy va amaliy ahamiyati', *International Journal of Finance and Digitalization*, 1(2).

U.S. Centers for Medicare & Medicaid Services (n.d.) Medicaid. Available at: <https://www.medicaid.gov>

United Nations (n.d.) Social protection. Available at: <https://www.un.org/development/desa/social-protection.html>

Аверинин, А.Н., Понедельков, А.В. and Алборова, Д.В. (2025) 'Финансирование выполнения социальных обязательств государства', *Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки*, № 3, p. 134.

Гончарова, М.В. (2006) 'Социальная поддержка населения', *Экономический анализ: теория и практика*, 13(70), p. 54.

Гончарова, М.В. (2006) *Социальная поддержка населения: характеристика финансового обеспечения и роли финансов домашних хозяйств*. Диссертация. Москва.

Лаврова, Е.Л. (2016) 'Проблемы экономических реформ социального обеспечения в системе государственного финансирования', *Человек. Общество. Инклюзия*, № 2(26).

Ўзбекистон Республикаси Президенти (2025) Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатнома. Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

Шутяк, Е.Н. (2004) *Финансовое обеспечение социальной защиты населения в Российской Федерации*. Самара: Изд-во Самарской государственной экономической академии.